



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizayov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI	64
Namazov Gafur Shokulovich	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI	69
Beglayev Uchqun Xurramovich	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOYIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI	75
Musulmonova Shahlo Nasriddinova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	81
Artikova R.A.	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILIYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN.....	93
Axliddin Aroptdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	99
Айматова Фарида Хуразовна	
KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	107
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	
DEHQON XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA KREDITLAR MIQDORINI DIFFERENSIYALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR	113
Xakimov Zafar Ibragimovich	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	118
Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	124
Muhammadieva Nodira	
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUDUDIY RIVOJLANISHNI STATISTIK HISOBLASH METODOLOGIYASINI QAYTA BAHOLASH MEZONLARI (SCOPUS VA WEB OF SCIENCE DA INDEKSLANGAN ILMIY NASHRLAR TAHLILI ASOSIDA).....	131
Santjar Abdumurodovich Sattorov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY-IQTISODIY OMILLARI VA ISTIQBOLLARI	139
Allamuratova Perida Maxsetbaevna	



XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI	144
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna, Yarmetova Nargiza Shiximbayevna	
MAHALLIY VA XALQARO TURIZM BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI, TAMOIYILLARI VA MEXANIZMLARI	152
Alikulov Samar Abdurashidovich	
TRANSPORT XIZMATLARINING SOHALAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TASNIFI	159
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
RAQAMLI TO'LOVLAR VA O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGI	165
Ruziyeva Barno Yadgarovna	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA TO'LOV XIZMATLARINI RAQAMLI MOLIYAVIY TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	168
Maxmudov Boburbek Axmedjan o'g'li	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ	172
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
MAJBURIY IJRO HARAkatLARINI RAQAMLASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	177
Matmuratova Nasiba Azatovna	
OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLAR TAHLILI	181
Pulaton Abdulla	
INVESTITSION LOYIHALARNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA ULARNI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	185
Nazarov Aziz Avazovich	
ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	190
Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING MAQSADLI PROGNOZ PARAMETRLARI	197
Omonova Nafisa Qahramon qizi	
MANAGEMENT STRATEGIES IN WOMEN'S BUSINESS: GENDER-SPECIFIC APPROACHES, INNOVATIVE MODELS, AND DIGITAL TRANSFORMATION	200
Ahrorova Asila	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	207
Hakimova Oydina Abdulhamidovna, Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna	
INSON TARAQQIYOTI INDEKSI VA UNI ANIQLAB BERUVCHI KO'RSATKICHLARNING KORRELYATSION-REGRESSION TAHLILI	212
Tursunov Rasul Tairovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	218
Эргашева Феруза Насруллаевна	
ENHANCING THE METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM VILLAGES IN UZBEKISTAN	226
Khudaynazarova Dilorom Khayrullaevna	
THE ROLE OF INNOVATION IN ENSURING COMPETITIVENESS IN THE GREEN ECONOMY	231
Musadjanova Nargiza Abduvoxid qizi	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINING O'RNI VA SAMARADORLIGI	238
Saodat Sadriddinova	
OLIY TA'LIMDA CHET TILLARNI O'QITISH UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	243
Saida Xabibullayeva	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИСКАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В СФЕРЕ ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	247
Исматиллаева Роза Тухтамуратовна, Тураева Сурия Тельмановна	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASHTERINING QIYMAT YARATISH UZLUKSIZ ZANJIRIDA AGROSERVIS XIZMATLARI KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	252
Kudratova Iroda Turdibayevna	



INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERINING QIYMAT YARATISH UZLUKSIZ ZANJIRIDA AGROSERVIS XIZMATLARI KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Kudratova Iroda Turdibayevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali katta o'qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida paxta-to'qimachilik klasterining qiymat yaratish uzluksiz zanjirida agroservis xizmatlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda agroservis xizmatlarining klaster tizimidagi o'rni, ularning samaradorlikka ta'siri hamda qiymat zanjiri bo'yab integratsiyalashuv darajasi tahlil qilingan. Shuningdek, agroservis xizmatlarini raqamlashtirish, logistika va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish orqali klaster samaradorligini oshirish yo'nalishlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida agroservis xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion iqtisodiyot, paxta-to'qimachilik klasteri, qiymat zanjiri, agroservis xizmatlari, raqamlashtirish, logistika, samaradorlik, integratsiya, boshqaruv, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article examines the improvement of agroservice services within the continuous value creation chain of the cotton-textile cluster under conditions of an innovative economy. The study analyzes the role of agroservice services in the cluster system, their impact on efficiency, and the level of integration along the value chain. Particular attention is given to the digitalization of agroservice services and the optimization of logistics and management processes as key directions for enhancing cluster performance. As a result, scientific and practical recommendations for the development of agroservice services are proposed.

Key words: innovative economy, cotton-textile cluster, value chain, agroservice services, digitalization, logistics, efficiency, integration, management, competitiveness.

Аннотация. В статье исследуются вопросы совершенствования агросервисных услуг в непрерывной цепочке создания стоимости хлопково-текстильного кластера в условиях инновационной экономики. Проанализированы роль агросервисных услуг в кластерной системе, их влияние на эффективность, а также уровень интеграции по всей цепочке создания стоимости. Особое внимание уделено цифровизации агросервисных услуг, оптимизации логистических и управленческих процессов как ключевым направлениям повышения эффективности кластера. В результате исследования разработаны научно-практические рекомендации по развитию агросервисных услуг.

Ключевые слова: инновационная экономика, хлопково-текстильный кластер, цепочка создания стоимости, агросервисные услуги, цифровизация, логистика, эффективность, интеграция, управление, конкурентоспособность.

KIRISH

Mamlakatimizda paxta xom ashyosini yetishtirishdan boshlab uni tayyor mahsulot sifatida sotishgacha bo'lgan ishlab chiqarishning uzluksiz zanjirini tashkil etish, qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali sohada daromadni oshirish, yetishtirilayotgan mahsulotlarning tannarxini 35 foizgacha qisqartirish, paxtadan o'rtacha 37 sentner hosil olishga erishish kabi amaliy chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 22-iyundagi 397-sonli hamda "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini



tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2021-yil 4-dekabrda 733-sonli qarorlari muhim dasturamal bo'lib hisoblanadi.

Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash quvvatlarini ko'paytirish, ushbu jarayonga ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish asosida yagona texnologik zanjirning qiymat yaratish imkoniyatini yanada oshirish klaster yondashuvini qo'llashning asosiy mazmun-mohiyatini ham ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda agrosanoat integratsiyasining zamonaviy tadbirkorlik shakli hisoblangan klaster tuzilmalari "qo'shilgan qiymat zanjiri"ning hosil bo'lish jarayonini aks ettirib, agrosanoat ishlab chiqarishining dastlabki, oraliq va yakuniy mahsulotlarini yagona qiymat zanjirida uyg'unlashtirishga, izdosh korxonalar iqtisodiy munosabatlarida "qo'shilgan qiymat zanjiri"ning yaratilish mexanizmini shakllantirishga imkon beradi. Mamlakatimizda bu jarayonning tadbirkorlar iqtisodiy munosabatlarida tendensiyaga aylanib borayotganligi ham yaratilayotgan qiymat zanjiri ishtirokchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish rejasini ishlab chiqish va uni uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi sifatida amalga oshirishni ta'minlaydi.

Qiymat zanjiri qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati samaradorligi bilan bog'liq muammolarni aniqlash vositalaridan biri hisoblanib, raqobat ustunligiga erishish imkoniyatlarini ham ochib beradi. Shu bilan birga, qiymat zanjirining har bir bo'g'ini raqobat ustunligi manbai hamdir. "...faoliyat turlarining qiymat yaratish zanjirida qo'llanilishi va shu asosda marketing strategiyasini tanlash oxir-oqibat raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi" [1].

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini rivojlantirish va ularning qiymat yaratish uzluksiz zanjirida agroservis xizmatlarini takomillashtirish masalalari iqtisodiy va boshqaruv fanlarida dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masala innovatsiyalar nazariyasi, klaster yondashuvi, qiymat zanjiri konsepsiyasi hamda agrar iqtisodiyot doirasida keng o'rganilgan [2].

Innovatsion iqtisodiyot va uning rivojlanishidagi asosiy omillar dastlab Joseph Schumpeter tomonidan asoslab berilgan bo'lib, u innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida talqin etgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, ishlab chiqarish tizimida yangi texnologiyalar va xizmatlarni joriy etish qiymat yaratish jarayonini tubdan o'zgartiradi.

Klaster yondashuvi esa Michael Porter tomonidan rivojlantirilgan bo'lib, u hududiy va tarmoqlararo integratsiya orqali korxonalar samaradorligini oshirish imkoniyatlarini asoslab bergan. Porterning fikriga ko'ra, klasterlar doirasida qiymat zanjiri ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlik innovatsiyalarni tezlashtiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Bu ayniqsa paxta-to'qimachilik klasterlari uchun muhim bo'lib, xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayonlarning uzluksizligini ta'minlaydi [3].

Qiymat zanjiri konsepsiyasi ham Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u mahsulot yaratish jarayonining barcha bosqichlarida qo'shimcha qiymatni aniqlash va oshirishga qaratilgan. Ushbu konsepsiya agroservis xizmatlarining ahamiyatini ham yoritadi, chunki ular qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish orqali umumiy qiymat zanjiriga sezilarli hissa qo'shadi [4].


TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqot innovatsion iqtisodiyot sharoitida paxta-to'qimachilik klasterining qiymat yaratish uzluksiz zanjirida agroservis xizmatlarini takomillashtirish masalalarini kompleks o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda zamonaviy ilmiy yondashuvlar va metodlar uyg'unligidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Paxta-to'qimachilik klasterida qiymatlar zanjiri ko'plab biznes jarayonlarini qamrab olgan bo'lib, ularning har biri nafaqat raqobat ustunligini ta'minlashga xizmat qiladi, balki mahsulot narxi va nafilligida aks etuvchi xarajatlar manbai hamdir [5]. Ayniqsa, mahsulot ishlab chiqarishning uzluksiz zanjirida korxona tomonidan ko'plab mahsulotlar xarid, ta'minot (tizimga kirishda yaratilgan qiymat), qayta ishlash, qo'shimcha qayta ishlash, sotish va yetkazib berish kabi taqsimot zanjiri bo'ylab ma'lum darajada qiymat yaratadi (taqsimot kanali tomonidan yaratilgan qiymat). Paxta-to'qimachilik sanoatining texnologik zanjiri quyidagi sohalarni qamrab oladi (1-rasm):

1. paxta tolasini ishlab chiqarish – xom ashyo – qishloq xo'jaligi sektori: tabiiy tolalar (jun, paxta va ipak) ishlab chiqarish;
2. paxta tolasini qayta ishlash – to'qimachilik sektori: ip va mato ishlab chiqarish;
3. yakuniy iste'molchi uchun tayyor kiyimlarni ishlab chiqarish – tikuvchilik sektori: tayyor va uy to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish.



1-rasm. Paxta-to'qimachilik klasterida qiymat yaratish zanjiri

1-rasmda qiymat zanjirini kengaytirish va rivojlantirish maqsadida tarmoqlar o'rtasidagi sheriklikni rivojlantirish yo'nalishlari ko'rsatilgan. Hamkorlik va sheriklikning shakllanishi zanjirning qiymati va davomiyligini, shuningdek, subyektlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Globalashuv, bozorda raqobatning kuchayishi hamda ishlab chiqarish va marketingda qo'llaniladigan texnologiyalardagi farqlar natijasida to'qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarishning to'liq zanjiri mavjud emas va tegishli tarmoqlar bir-biridan mustaqil ravishda rivojlanmoqda, buning natijasida ular rivojlanishning turli darajalarida shakllanmoqda. Shuning uchun raqobatbardoshlik va samaradorlikni oshirish uchun uchta kichik bo'lim (tola ishlab chiqarish, tolani qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish) bo'yicha ularni rivojlantirish yo'nalishlarini alohida ishlab chiqish zarur.

To'qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish sanoat va korxona darajasida yangi boshqaruv yondashuvlarini qo'llashni talab qiladi. Shuning uchun to'qimachilik va kiyim-kechak korxonalari uchun, avvalo, ularning manfaatdor tomonlari bilan sheriklik aloqalarini o'rnatish zarur. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, to'qimachilik va moda sanoati korxonalarida sheriklikning rivojlanish darajasi yetarli emas.

Shunday qilib, iqtisodiy hamkorlik yo'nalishidagi kamchiliklar va tendensiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. To'qimachilik va kiyim-kechak sanoatida birlashmalarning integratsiya shakllari yetarlicha rivojlanmagan.
2. Universitetlar va to'qimachilik korxonalari o'rtasidagi hamkorlikning zaifligi.
3. Raqobatchi korxonalar va sohalar bilan qo'shma dasturlarni yaratish va amalga oshirishning yo'lga qo'yilmaganligi.
4. Paxta-to'qimachilik va moda sanoati o'rtasida marketing dasturlarining rivojlanmaganligi.

Paxta-to'qimachilik va moda sanoati yagona texnologik zanjir hosil qilishi mumkin. Mamlakatimizda ushbu tarmoq korxonalarining juda yuqori konsentratsiyalashganligi va mahalliyashtirilganligidan kelib chiqib, klaster-integratsiya jarayonlarini rivojlantirishni tubdan qayta ko'rib chiqish zarur hisoblanadi (1-jadval).



1-jadval. Qiymat yaratishning an'anaviy zanjiri va 5F modelining o'ziga xos jihatlari

Omillar	An'anaviy qiymat yaratish zanjirining o'ziga xos jihatlari	qiymat yaratish zanjirining 5F modeli
qiymat zanjiri	xomashyo eksportiga asosiy urg'u berilganligi	yuqori sifatli va yuqori qiymatli mahsulotlar yaratish
innovatsion taraqqiyot	innovatsiyalarning kam qo'llanilishi	texnologik integratsiya va avtomatlashtirish
barqarorlik va ekologik muammolarning yaxliligi	tabiiy resurslardan samarali foydalanmaslik oqibatida ekologik muammolarning kuchayib borishi	ekologik toza va izlenuvchan ishlab chiqarish
global raqobat va eksport imkoniyatlari	an'xanaviy qiymat yaratish zanjirida raqobatning zaifligi va bir tomonlama xususiyati, tayyor mahsulotning eksport imkoniyatlarining sezilarli pastligi kuzatiladi	raqamli brendlar va yuqori sifatli mahsulotlar
ijtimoiy rivojlanish, texnologik sinergiya va tizimli yondashuv	past malakali, mavsumiy ish o'rinlarining ko'pligi	yuqori malakali va zamonaviy ish o'rinlari

Paxta-to'qimachilik sanoatining 5F "farm to fiber to factory to fashion to foreign" — "daladan tolaga, zavodga, modaga va eksportga" tamoyiliga ko'ra qiymat yaratishning uzluksiz zanjiriga asoslanib, milliy paxta-to'qimachilik sohasi raqobatbardoshligini oshirish uchun klasterli yondashuvning raqobat ustunliklaridan nafaqat rasmiy, balki klaster subyektlari o'rtasidagi norasmiy hamkorlik munosabatlarini, shuningdek, davlat-xususiy sheriklikni ham ko'rib chiqish lozim.

Birinci jihati, qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi sifatida yangi g'oyalar, texnologiyalar, jarayonlar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'zda tutadi. Bu, albatta, sohaning rivojlanishiga, shu asnoda mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'siri juda muhimdir. Ayniqsa, bugungi kundagi texnologik yangiliklar nafaqat fabrikalar va sanoat korxonalarida, balki qishloq xo'jaligi, xizmatlar va boshqa sohalarda ham qo'llanilishi zarur. Demak, innovatsiyalar va texnologik integratsiya samaradorlik va raqobatbardoshlikning asosiy manbai sifatida biz tadqiq qilayotgan paxta-to'qimachilik klasteri yoki paxtachilikning an'anaviy zanjirida texnologik yangilanishlarni kengaytirish, qo'l mehnatini keskin kamaytirish, Agriculture 4.0, Industry 4.0, FashionTech texnologiyalarining integratsiyasi asosida samaradorlikni tubdan oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi jihati, milliy iqtisodiyot, shuningdek, qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan mamlakatlarda barqaror rivojlanish va ekologiya muammolarining yaxliligi an'anaviy qiymat yaratish zanjirida ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik ta'sirini pasaytirish, resurslardan samarali foydalanish asosida ularning sarfini ham kamaytirishga urg'u bermoqda.

Uchinchi jihati, global raqobat va eksport muammolari tufayli jahon bozorida raqobat kuchaymoqda, xom ashyo eksportidan yuqori qiymatli tayyor mahsulotlar eksportiga o'tish iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylanmoqda. "...Jahon to'qimachilik va kiyim-kechak sanoati so'nggi 100 yil mobaynida bir necha marotaba "ishlab chiqarish migratsiyasi"ni boshdan kechirdi. Ushbu migratsiya jarayonlarining barchasi Osiyo qit'asi bilan bog'liqdir. Dastlab to'qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarishda Yaponiyaning yaqqol ustunligi sababli sanoatning Shimoliy Amerika va G'arbiy Yevropadan Yaponiyaga, 1970–1980-yillarda Osiyo kiyim-kechak ishlab chiqaruvchilari hisoblangan «Uchinchi katta uchlik» (Gonkong, Tayvan va Janubiy Koreya)ga, "Katta uchlik"dan Xitoy, Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari va Shri-Lankaga va nihoyat 1990-yillardan e'tiboran Janubiy Osiyo, Vetnam va Lotin Amerika kiyim-kechak ta'minotchilariga aylanib ulgurdi.

Ko'rib o'tilgan to'qimachilik migratsiyasi kiyim-kechak tovar zanjirida sanoatni takomillashtirish, mahalliy integratsiyalangan ishlab chiqarish va marketing tarmoqlarini yaratish, xorijiy iste'molchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish; arzon narxdagi ta'minotchilarni qamrab olish maqsadida kiyim-kechak tovar zanjirini baynalmilallashtirish jarayonlari bilan kechdi. Natijada global savdo tarmoqlari orqali iste'molchilar zanjirini muvofiqlashtirish, Osiyo hududida kiyim-kechak tovar zanjirining to'liq shakllanishi va mintaqalashuvi ro'y berdi". Aynan mahsulotlarning eksport imkoniyatlari, milliy brendlar va qo'shimcha qiymat yaratish manbaiga aylandi.

Va nihoyat, to'rtinchi jihati — texnologik sinergiya va tizimli yondashuvning zarurligi. An'anaviy tizimda qishloq xo'jaligi, sanoat va savdo sohalari alohida rivojlanadi, ular o'rtasida yetarli integratsiya kuzatilmaydi. Aynan ushbu sohalarni raqamli platformalar yordamida bog'lab, tizimli yondashuvni amalga oshirish milliy iqtisodiyotning an'anaviy qiymat yaratish zanjiridagi qisqa muddatli, kam malaka talab etadigan ish o'rinlari va kasblarni zamonaviy IT, dizayn, raqamli marketing bilan uyg'unlashgan holda yoshlar bandligini oshirish hamda qishloq xo'jaligini raqamlashtirishni ta'minlashda o'ta dolzarbdir.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, paxta-to'qimachilik klasterida qiymat zanjiri (qo'shimcha qiymatni shakllantirish) paxta xom ashyosini zaruriy iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan yuqori texnologik tayyor mahsulotga aylantirish va yakuniy iste'molchiga yetkazib berishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat turlari yoki ishlab chiqarish jarayonlaridan iborat. Qiymat zanjirini yaratishning asosiy maqsadi paxta xom ashyosini tayyorlash, paxta-to'qimachilik sanoatining mahsuldorligi va samaradorligini yanada oshirish, iste'molchilar uchun yakuniy mahsulotning iste'mol qimmatdorligini oshirish asosida barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatdorligini oshirish hisoblanadi. Paxtaning qiymati — uning foydaliligi, sanoatning turdosh tarmoqlarini qo'shimcha xom ashyo va mahsulot bilan ta'minlash asosida sinergetik samaraga erishish imkoniyatining ortib borishi bilan belgilanadi.

Paxta bozoridagi raqobat kurashi fermer xo'jaliklarining ekin maydonlarini yanada optimallashtirishni, shu bilan birga iqtisodiy faoliyatini yagona buyurtmachi tamoyilidan bozor tamoyillariga asoslanishini talab etadi. Shu bilan birga, global raqobat muhitida paxta xom ashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan yirik korxonalar bilan raqobatlashish murakkab va amalda iqtisodiy jihatdan imkonsiz bo'lganligi sababli, turli darajadagi fermer xo'jaliklari o'rtasida sifat jihatidan yangi darajadagi o'zaro aloqalarni shakllantirish jadallashdi. Bunday sharoitda paxta-to'qimachilik klasteri paxtachilik ishlab chiqarish va uni sotishning eng samarali tashkiliy shakli sifatida qaraladi, "bitta korxonaning samaradorligini oshirish kelgusida uzluksiz ishlab chiqarish zanjirining barcha ishtirokchilari uchun kumulyativ samara beradi". Paxtachilik ishlab chiqarishda paxta xom ashyosini yetkazib beruvchi fermer xo'jaliklari, paxtani qabul qilish va birlamchi qayta ishlash korxonalari, ulgurji va chakana vositachilar kiradi. Paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlashning uzluksiz zanjiriga vertikal integratsiyalashgan korxonalar uchun xos bo'lgan ozuqa ishlab chiqaruvchilari ham kirishi mumkin. Zanjir ishtirokchilarining har biri o'z faoliyati natijasida qo'shimcha qiymat hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Нехланова, А. М. Цепочка ценности как инструмент стратегического управления в АПК // Вестник РЭА им. Г. В. Плеханова. — 2021. — № 2 (116).
2. Gereffi, G. (1999). Международная торговля и модернизация производства в цепочке поставок одежды. Журнал международной экономики, 48, 37–70.
3. Basuchoudhary, A. (2014). Daron Acemoglu and James A. Robinson: Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. Public Choice, 159, 317–320. <https://doi.org/10.1007/s11127-013-0148-9>
4. Муқимов, З. М. Фермер хўжаликларига хизмат кўрсатиш ва моддий-техник таъминоти тизимини такомиллаштириш йўллари: иқт. фан. номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. — Тошкент, 2009.
5. Хамраева, С. Н. Қишлоқ хўжалигига хизмат кўрсатувчи инфратузилмани инновацион ривожлантириш йўналишлари: 08.00.04 — Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. — Тошкент: ТИҚХММИ, 2019. — 74 б.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>